UO‘K: 930.85

BUYUK IPAK YO‘LI: IQTISODIY, MADANIY VA GEOSIYOSIY AHAMIYATI

H.F. Ochilova, J.S. Erkaboyeva

Maqolada Buyuk Ipak yo‘lining iqtisodiy integratsiyadagi o‘rni, madaniy merosning shakllanishiga va geosiyosiy strategiyalarga ta’siri tadqiq etilgan. Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan savdo operatsiyalari, texnologik va ilmiy yutuqlarning tarqalishi, shuningdek, davlatlarning geosiyosiy manfaatlari doirasidagi o‘zaro munosabatlari o‘rganilgan hamda ushbu tarixiy yo‘lning zamonaviy xalqaro savdo va diplomatiyaga ta’siri ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Buyuk Ipak yo‘li, xalqaro savdo, iqtisodiy integratsiya, madaniy almashinuv, geosiyosat, tarixiy meros, transport yo‘laklari.*

В статье проводится всесторонний анализ значения Великого шёлкового пути в процессе экономической интеграции, его влияния на формирование культурного наследия и воздействия на гео политические стратегии. В рамках исследования изучаются торговые операции, осуществлявшиеся по этому маршруту, распространение технологических и научных достижений, а также характер взаимных отношений между государствами в контексте их геополитических интересов. Особое внимание уделяется влиянию данного исторического пути на современную международную торговлю и дипломатию.

Ключевые слова: *Великий Шелковый путь, международная торговля, экономическая интеграция, культурный обмен, геополитика, историческое наследие, транспортные коридоры.*

KIRISH

Tarixiy jarayonlar insoniyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutib, sivilizatsiyalar o‘zaro aloqadorligi orqali shakllangan va rivojlangan. Bu jarayonda Buyuk Ipak yo‘li eng muhim xalqaro savdo va madaniy muloqot yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu yo‘l Sharq va G‘arb o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy va geosiyosiy bog‘liqlikni ta’minlagan eng qadimiy savdo yo‘llaridan biri bo‘lib, uzoq asrlar davomida dunyo iqtisodiyoti va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi aloqalar tizimining asosi bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi kunda esa ushbu yo‘nalish faqat tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki global miqyosda geoiqtisodiy va geosiyosiy jarayonlarga bevosita ta’sir o‘tkazuvchi omil sifatida ham e’tirof etilmoqda.

Buyuk Ipak yo‘li faqatgina savdo va iqtisodiyot bilan cheklanmay, balki ilm-fan, san’at, din, til va umuman madaniyatlarning uzviy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, o‘rta asrlarda bu yo‘l orqali nafaqat ipak, ziravorlar va boshqa tovarlar, balki bilimlar, innovatsiyalar va ijtimoiy g‘oyalar ham keng tarqalgan. Shu sababli Buyuk Ipak yo‘li dunyo tarixida beqiyos madaniy muloqot va taraqqiyot vositasi sifatida ko‘riladi.

Tadqiqot doirasida Buyuk Ipak yo‘lining jahon iqtisodiyotiga ta’siri, madaniyatlar almashinuvidagi roli va geosiyosiy manfaatlar nuqtayi nazaridan strategik ahamiyati o‘rganildi. Bundan tashqari, Buyuk Ipak yo‘lining zamonaviy global iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi o‘rni ham ko‘rib chiqildi. Ushbu mavzu bo‘yicha olib boriladigan ilmiy tahlillar tarixiy tajribalar va zamonaviy integratsion jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.

MATERIAL VA METODLAR

Buyuk Ipak yo‘li haqida qadimgi xitoy, fors, arab va Yevropa manbalaridagi yozuvlar, qadimgi sayyoh va geograflar qayd etgan ma’lumotlar hamda bugungi kundagi nufuzli tadqiqotlar asosida tahlil olib borildi.

Zamonaviy Buyuk Ipak yo‘li konsepsiyasi, xususan, Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusidan ko‘zlangan XXI asrdagi iqtisodiy va siyosiy manfaatlari o‘rganiladi. Bu jarayonda Xitoy, Markaziy Osiyo

davlatlari, Rossiya va Yevropa ittifoqining strategik manfaatlari tahlil qilindi.

Buyuk Ipak yo‘lining iqtisodiy, madaniy va geosiyosiy ahamiyatini tadqiq etish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Ushbu ilmiy maqolada turli metodologik yondashuvlardan foydalanib, mavzuning keng qamrovli tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy tahlil, iqtisodiy tadqiqot usullari, madaniy almashinuvni o‘rganish hamda geosiyosiy jarayonlarni modellashtirish kabi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Buyuk Ipak yo‘lining iqtisodiy, madaniy va geosiyosiy ahamiyati uzoq yillardan beri tarixchilar, iqtisodchilar va geosiyosatchilar tomonidan keng o‘rganib kelinmoqda. Mavzuga oid tadqiqotlar turli fan sohalari doirasida olib borilgan bo‘lib, ular Ipak yo‘lining tarixiy jarayonlardagi o‘rnini turli nuqtayi nazardan yoritadi.

Ipak yo‘li haqida iqtisodiy jihatdan eng muhim tadqiqotlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo‘lib, ular asosan Yevropa va Rossiya olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Masalan, mashhur tarixchi Rene Grousset o‘zining “Sahro imperiyasi: Markaziy Osiyo tarixi” [“The Empire of the Steppes: A History of Central Asia”] asarida Ipak yo‘lining Yevrosiyo mintaqasidagi iqtisodiy ahamiyatiga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, bu yo‘l orqali savdo rivojlangani nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotiga, balki Yevropa va Osiyo iqtisodiy integratsiyasiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan [1. B. 425].

Shuningdek, sovet olimlaridan V.V.Bartold o‘zining “Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida” [“Туркестан в эпоху монгольского нашествия”] asarida Ipak yo‘lining iqtisodiy roliga urg‘u berib, uning savdo aloqalarini rivojlantirishdagi strategik ahamiyatini yoritgan. Bartold Ipak yo‘li orqali O‘rta Osiyo shaharlarining gullab-yashnashiga, ularning madaniy va iqtisodiy markazlarga aylanishiga alohida e’tibor qaratadi [2. B. 80].

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar orasida P.Frankopanning “Ipak yo‘li: dunyoning yangi tarixi” [“The Silk Roads: A New History of the World”] asari alohida o‘rin tutadi. Muallif Buyuk Ipak yo‘lining global iqtisodiy tizimdagi o‘rnini yangi konseptual yondashuvlar asosida tahlil qiladi. U Ipak yo‘lini shunchaki tarixiy fenomen emas, balki zamonaviy iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan muhim faktor sifatida ko‘rsatadi [3. B. 538].

Ipak yo‘li faqat iqtisodiy savdo yo‘li emas, balki sivilizatsiyalar o‘rtasidagi madaniy almashinuvning muhim vositasi sifatida ham o‘rganilgan. Xitoy, Hindiston, Eron, Vizantiya va Arab xalifaligi o‘rtasidagi madaniy ta’sirni o‘rgangan mashhur olimlardan biri Jozef Needham bo‘lib, u “Xitoyda ilm-fan va sivilizatsiya” [“Science and Civilization in China”] nomli fundamental tadqiqotida Xitoy sivilizatsiyasining G‘arbga ta’siri va Ipak yo‘li orqali ilmiy bilimlarning tarqalishini tahlil qilgan [4. B. 112].

Shuningdek, ba’zi tadqiqotchilar o‘z maqolalarida Buyuk Ipak yo‘li ta’sirida Markaziy Osiyo hududida madaniy va ilmiy aloqalar rivojlanganini ta’kidlaydi [5, 6, 7]. Ularning fikricha, bu yo‘l nafaqat moddiy boyliklar almashinuviga, balki falsafa, din, san’at va ilmiy bilimlarning Yevropa va Osiyo o‘rtasida tarqalishiga ham sabab bo‘lgan [5, 6, 7]. Xususan, Markaziy Osiyo allomalari – al-Farg‘oniy, Beruniy va Ibn Sino kabilarning ilmiy merosi aynan Ipak yo‘li orqali dunyo miqyosida yoyilgan. Shuningdek, 2022-yilda Samarqandda “Abu Ali ibn Sino va Buyuk Ipak yo‘li” mavzusida o‘tkazilgan I xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ham Ipak yo‘lining ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi muhokama qilingan [8].

Shu bilan bir qatorda Xitoy va Markaziy Osiyo shaharlarini O‘rtayer dengizi mamlakatlari bilan bog‘lovchi bu buyuk yo‘l ko‘p asrlar davomida ushbu hududlar o‘rtasidagi savdo va madaniyatlar almashinuvida katta rol o‘ynagan. U eramizdan avvalgi II asrda Xitoy va Farg‘ona vodiysi shaharlari o‘rtasidagi savdo yo‘li sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, keyinroq Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muhim transport aloqa yo‘li maqomini egalladi va bu o‘rta asrlarga qadar amal qildi [9].

Bugungi kunda Ipak yo‘li konsepsiyasi “Bir makon, bir yo‘l” (BRI) tashabbusi orqali qaytadan jonlanmoqda. David Arase «“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi: sabablari, ko‘lami va muammolari» [“The Belt and Road Initiative: Motives, Scope, and Challenges”] nomli tadqiqotida ushbu loyiha orqali Xitoy o‘zining global iqtisodiy va siyosiy ta’sirini kengaytirishga intilayotganini ko‘rsatadi [10]. Shuningdek, Zbignev Bjezinski “Buyuk shaxmat taxtasi: Amerika ustunligi va uning geostrategik imperativlari” [“The Grand Chessboard: Amarican Primacy and Its Geostrategic Imperatives”] asarida Markaziy Osiyoni Buyuk davlatlar geosiyosiy manfaatlari to‘qnashgan hudud sifatida tahlil qilib, Ipak yo‘li orqali olib borilgan iqtisodiy va siyosiy strategiyalarni yoritadi. Uning fikricha, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy yetakchilikka asosiy nomzod bo‘lib, uning aholisi nisbatan bir xil millatga mansub va son jihatdan ko‘proqdir [11. B. 121].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Buyuk Ipak yo‘li tarixan nafaqat savdo va iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi bo‘lgan, balki madaniyatlararo muloqot va geosiyosiy kurashlar maydoni sifatida ham

katta ahamiyat kasb etgan. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ushbu yo‘lning global miqyosdagi iqtisodiy va siyosiy ta’sirini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa, XX va XXI asrlarda bu mavzu yangi yondashuvlar orqali tahlil qilinmoqda. Buyuk Ipak yo‘lining dolzarbligi bugungi kunda ham saqlanib qolgan bo‘lib, u xalqaro iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlarning muhim elementi sifatida o‘rganilmoqda.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Buyuk Ipak yo‘li insoniyat tarixida iqtisodiy, madaniy va geosiyosiy jihatdan ulkan o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan eng muhim transport va savdo yo‘llaridan biri bo‘lib, uning ta’siri asrlar davomida Markaziy Osiyo, Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyo mintaqalarining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

Buyuk Ipak yo‘li Sharq va G‘arbni bog‘lagan muhim savdo aloqalarini rivojlantirish bilan birga iqtisodiy integratsiya jarayonlarini ham jadallashtirgan. Tadqiqot davomida savdo hajmlari va asosiy mahsulotlar, shaharlarning iqtisodiy o‘sishi va markaziy bozorga aylanishi, pul muomalasi va moliyaviy tizimning shakllanishi hamda savdo yo‘lining tanazzulga uchrash sabablari kabi asosiy iqtisodiy jihatlar aniqlandi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Buyuk Ipak yo‘li orqali olib o‘tilgan asosiy mahsulotlar qatoriga ipak, ziravorlar, qimmatbaho metallar, chinni buyumlar, qurol-yarog‘ va qog‘oz kabi tovarlar kiradi. Xususan, So‘g‘diyonadan Xitoyga jun gazlama, gilam, zeb-ziynat, buyumlar va qimmatbaho toshlar olib borilgan. Baqtriyadan tuyalar, Farg‘onadan zotli otlar, Badaxshondan la’l, Hindistondan O‘rta Osiyo viloyatlariga ip-gazlama va paxta chigiti ortilgan karvonlar kelgan. Shuningdek, Xitoydan guruch keltirilgan hamda O‘rta Osiyo viloyatlaridan Xitoyga uzum, yong‘oq, anor va boshqa dehqonchilik mahsulotlari tashilgan. Ayniqsa, Xitoydan chiqarilgan ipak va Yevropadan olib kelingan qimmatbaho metallar eng talabgir mahsulotlar hisoblangan [12].

Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Koshg‘ar, Dunxuan, Bag‘dod kabi shaharlar muhim savdo markazlariga aylangan hamda ushbu shaharlar savdo orqali katta iqtisodiy qudratga erishib, o‘zlarining moliyaviy tizimini rivojlantirgan.

Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab xalqaro savdoning rivojlanishi natijasida turli davlatlar o‘zining moliyaviy tizimlarini shakllantirgan. Masalan, Song sulolasi (960–1279) Xitoyda birinchi marta qog‘oz pullarni muomalaga kiritgan, Markaziy Osiyoda esa tillo va kumush tangalar savdo vositasi sifatida keng tarqalgan [13]. Shuningdek, Xitoy ta’siri ostida Markaziy Osiyoda ipakchilik va qog‘oz ishlab chiqarish rivojlana boshladi. Uning O‘rtaqirollikdan tashqarida ishlab chiqarilishi birinchi marta VIII asrda tashkil etilgan. U yerdan u g‘arbga tarqaldi va avvalgi yozuv materiallarini – pergament va papirusning o‘rnini egalladi. Ushbu yo‘llar bo‘ylab xalqaro aloqa arxitektura va shaharsozlikka katta ta’sir ko‘rsatdi [14].

Buyuk Ipak yo‘lining iqtisodiy ta’siri XV–XVI asrlarga kelib biroz pasaygan. Bunga quyidagi bir nechta omil sabab qilib ko‘rsatiladi:

dengiz yo‘llari orqali savdo rivojlanishi, ya’ni Buyuk geografik kashfiyotlar sodir bo‘lishi natijasida;

mo‘g‘ullar istilosi va bosqinchilik urushlari natijasida savdo xavfsizligining zaiflashishi;

yangi yirik iqtisodiy markazlarning vujudga kelishi, ya’ni Osiyo va Yevropa mamlakatlarida mustahkam ichki bozorlarning shakllanishi.

Buyuk Ipak yo‘li faqatgina savdo yo‘li bo‘lmay, balki turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida mustahkam aloqalar o‘rnatishga xizmat qilgan. Tadqiqot davomida, ilm-fan va texnologiyalarning almashinuvi, dinlar va mafkuralarning tarqalishi, uning san’at va adabiyotga ta’siri kabi asosiy madaniy jarayonlar o‘rganildi.

Ipak yo‘li orqali nafaqat savdo mahsulotlari, balki ilmiy bilimlar ham tarqalgan. Ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot va falsafa sohalarida Sharq va G‘arb olimlari o‘rtasida o‘zaro ilmiy bilimlar almashinuvi sodir bo‘lgan. Xitoydan qog‘oz va ipak tayyorlash texnologiyalari Yevropaga yetib borgan va o‘rganilgan. Shuningdek, Movarounnahr va Yaqin Sharq olimlari Yevropa va Xitoy astronomlari bilan tajriba almashishgan. Samarqandda Ulug‘bek rasadxonasi orqali ishlab chiqilgan astronomik jadvallar G‘arbda uzoq vaqt davomida qo‘llanilgan. Ibn Sino va Ar-Roziy kabi sharqshunos olimlarning tibbiyot haqidagi asarlari Ipak yo‘li orqali G‘arbga tarqalgan. Ularning tibbiyot bo‘yicha asarlari Yevropa universitetlarida o‘rganilgan. Yunon faylasuflarining asarlari esa Sharq tafakkuri bilan boyitilib, arab tarjimalari orqali Yevropaga qayta yetib borgan. Ayniqsa, Farobiy va Ibn Rushdning asarlari Yevropada katta ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, al-Xorazmiy asarlari, xususan, uning “Hisob al-jabr va al-muqobala” asari XII asrda yoq lotin tiliga tarjima qilingan va Yevropada algebra fanining yanada rivojlanishiga sabab bo‘lgan [6].

Shu bilan bir qatorda, Ipak yo‘li orqali turli diniy e’tiqodlar keng tarqalgan. Buddizm Xitoydan Markaziy Osiyoga va undan Yevropaga yetib borgan, islom dini esa VIII–X asrlarda Ipak yo‘li orqali Yaqin Sharqdan Markaziy Osiyoga va undan Hindistonga tarqalgan. Nasroniylik va zardushtiylik kabi dinlar ham Ipak yo‘li orqali turli hududlarga yetib borgan.

Buyuk Ipak yo‘li orqali turli xalqlarning san’ati va adabiyoti o‘zaro ta’sirga kirishgan. Xususan, Xitoy-

ning Tan sulolasi davrida Markaziy Osiyo va fors madaniyatining kuchli ta'siri sezilgan, Markaziy Osiyoning tojik va fors adabiyotlari esa turkiy xalqlarga ham ta'sir qilgan [15].

Buyuk Ipak yo'li strategik jihatdan muhim yo'l bo'lganligi uchun doimo yirik imperiyalar va davlatlarning manfaatlari markazida bo'lib kelgan. Shuning uchun Ipak yo'li bo'ylab joylashgan davlatlar ushbu yo'l ustidan nazorat o'rnatish uchun doimiy raqobat olib borgan. Misol uchun Xitoy va Turk xoqonligi o'rtasidagi kurashlar (VI–VIII asrlar) hamda Mo'g'ullar imperiyasi davrida Ipak yo'lining umumiy savdo tizimiga birlashtirilishi (XIII–XIV asrlar) kabilarni keltirishimiz mumkin [16, 17].

Bugungi kunda ushbu tarixiy yo'l "Bir makon, bir yo'l" loyihasi doirasida Xitoy tomonidan qayta tiklanmoqda. Ushbu loyiha zamonaviy iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlarga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda, ya'ni Markaziy Osiyo davlatlari uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar paydo bo'lmoqda, Yevropa, Rossiya va Xitoy o'rtasidagi transport yo'llari diversifikatsiya qilinmoqda. Shuningdek, Ipak yo'li zamonaviy savdo va investitsiyalar uchun strategik yo'nalishga aylanmoqda [18].

"Bir makon – bir yo'l" (BRI) loyihasining asosiy maqsadlari:

1. Global savdoni rivojlantirish. BRI tashabbusi, avvalgi Buyuk Ipak yo'li kabi, Xitoyni Markaziy Osiyo, Yevropa, Afrika va boshqa mintaqalar bilan bog'lab, savdo va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni maqsad qilgan. Bu orqali Xitoyning iqtisodiy ta'siri kuchaytirilishi va uning global savdo tizimidagi o'rni yanada mustahkamlanishi ko'zda tutilgan.

2. Infratuzilma qurilishi. Loyiha, jumladan, transport infratuzilmasini (yo'llar, temir yo'llar, portlar, havo yo'llari) yaratish va modernizatsiya qilishga qaratilgan. Shuningdek, energetika infratuzilmasi, suv resurslarini boshqarish va boshqa asosiy inshootlar ham qamrab olingan.

3. Raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish. BRI turli sohalarni, jumladan, sanoat, agrar, savdo va texnologiyalarni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bu esa Xitoyga yangi bozorlarga kirib borish, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar yaratish imkonini beradi.

4. Xalqaro siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash. Tashabbus orqali Xitoy xalqaro miqyosda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va diplomatik aloqalarni mustahkamlashga erishishga intiladi. BRI, shuningdek, global miqyosda Xitoyning siyosiy mavqeyini oshirishni ham ko'zda tutadi.

Ipak yo'li bo'ylab savdo va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlar uchun yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu iqtisodiy o'sish va ish o'rinlari yaratishga yordam beradi. Xitoyning BRI orqali o'zining xalqaro siyosiy ta'sirini oshirishi, albatta, siyosiy va diplomatik aloqalar nuqtayi nazaridan ham juda muhim. Xitoyning bu tashabbusi boshqa davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantiradi va yangi ittifoqlarni shakllantiradi [7].

Buyuk Ipak yo'li faqatgina tarixiy savdo yo'li emas, balki dunyo iqtisodiyoti, madaniyati va geosiyosati rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan global hodisa bo'lgan. U orqali jahon iqtisodiyoti va savdosi rivojlangan, xalqaro bozorlar o'zaro bog'langan, madaniyatlar va dinlar o'rtasida keng ko'lamli almashinuv jarayonlari yuz bergan hamda geosiyosiy jihatdan yirik davlatlar Ipak yo'li ustidan nazorat uchun kurash olib borgan.

Zamonaviy globalizatsiya sharoitida Buyuk Ipak yo'li konsepsiyasi qayta tiklanmoqda va uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyati tobora oshib bormoqda. Bu esa tarixiy yo'lning strategik rolini XXI asr sharoitida yanada mustahkamlash ehtimolini ko'rsatadi.

XULOSA

Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo aloqalarini rivojlantirgan, turli iqtisodiy tizimlarni bir-biriga bog'lagan va xalqaro savdo tarmoqlarining shakllanishiga sabab bo'lgan hamda savdo bilan bog'liq ravishda shaharlar rivojlangan, iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadallashgan va yangi bozorlarga asos solingan. Xususan, ipak, ziravorlar, qimmatbaho metallar, chinni buyumlar va boshqa mahsulotlarning ayirboshlanishi jahon iqtisodiyotining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan hamda pul muomalasi rivojlanib, turli davlatlar o'zining tangalarini chiqarish va qog'oz pul muomalasini joriy etish orqali moliyaviy tizimlarini mustahkamlagan.

Ipak yo'li faqatgina savdo tarmog'i bo'lib qolmay, balki madaniyatlarning o'zaro ta'sir qilishiga xizmat qilgan. Turli millatlar va xalqlar o'rtasida san'at, adabiyot, til va madaniy qadriyatlar almashinuvi sodir bo'lgan, buddizm, islom, nasroniylik va boshqa diniy e'tiqodlar turli mintaqalarga yoyilgan. Shuningdek, ilm-fan va texnologik yutuqlarning keng tarqalishi natijasida matematika, tibbiyot, astronomiya va boshqa sohalarda yirik yutuqlarga erishilgan.

Buyuk Ipak yo'li ustidan nazorat o'rnatish yirik imperiyalar va davlatlarning strategik maqsadlaridan biri bo'lgan. Shu sababli Mo'g'ullar imperiyasi Ipak yo'li orqali yagona savdo makonini shakllantirgan bo'lsa, keyinchalik Rossiya va Britaniya imperiyalari XIX asrda Markaziy Osiyo ustidan nazorat uchun raqobat olib borgan.

Bugungi kunda Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi orqali Buyuk Ipak yo‘li konsepsiyasi qayta tiklanmoqda va u zamonaviy geosiyosiy jarayonlarga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari uchun bu loyiha yangi iqtisodiy va savdo imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Buyuk Ipak yo‘li faqat tarixiy fenomen bo‘lib qolmay, balki bugungi kunda ham global iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda muhim o‘rin tutmoqda. U Sharq va G‘arb o‘rtasida mustahkam iqtisodiy va madaniy aloqalar o‘rnatishda muhim strategik vosita bo‘lib kelgan va kelajakda ham ushbu rolni davom ettirishi kutilmoqda.

Bugungi kunda Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyatini yanada oshirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Markaziy Osiyo mamlakatlari Buyuk Ipak yo‘lining zamonaviy talqinda rivojlanishida faol ishtirok etishi;

Madaniy merosni asrash va targ‘ib qilish;

Ilmiy hamkorlik va almashinuv dasturlarini kengaytirish;

Yangi geosiyosiy va iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqish;

Turizmni rivojlantirish;

Ipak yo‘lining ekologik barqarorligini ta’minlash;

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish Buyuk Ipak yo‘lini tarixiy meros sifatida saqlab qolish bilan birga, uning zamonaviy global iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlardagi ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish, tarixiy merosni asrash, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish orqali Buyuk Ipak yo‘lining tarixiy missiyasi XXI asrda ham davom etishi mumkin. Shu sababli mamlakatlar o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida ushbu yo‘lning zamonaviy imkoniyatlarini to‘laqonli ishga solishlari maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. *Grousset R*. The Empire of the Steppes: A History of Central Asia. [Online]. URL: https://www. rutgersuniversitypress.org/the-empire-of-the-steppes/9780813513041/?utm (Date of Access: 18.11.2024).

2. *Бартольд В.В*. Туркестан в эпоху монгольского нашествия /Сочинения: в 9 томах. Т. 1. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – 760 с.

3. *Frankopan P.* The Silk Roads: A New History of the World. – London: Bloomsbury, 2015. – 656 p.

4. *Needham J.* Science and Civilization in China. Vol. I. Introductory Orientations. – London: Cambridge University Press, 1954. – 318 p.

5. *Rustamaliyev J.F*. Buyuk Ipak yo‘li: O‘zbekistonda savdo va madaniyatlar almashinuvi // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Vol. 50. – No 1. – Pp. 217–223. [Elektron manba]. URL: https://scientific-jl.com/luch/article/view/25864 (Murojaat etilgan sana: 15.03.2025).

6. *Nurmuhamedova M.U.* Buyuk Ipak yo‘li tarixi va madaniy almashinuvlar // Problems and solutions of scientific and innovative research. – 2024. – Vol.1. Issue 5. – Pp.137–140. [Elektron manba]. URL: https://universalconference.us/universalconference/index.php/pssir/article/view/2726/3744 (Murojaat etilgan sana: 09.09.2024).

7. *Sultanova E.F.* Buyuk Ipak yo‘li – sivilizatsiyalar chorrahasi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – Vol. 5(1). Pp. 242–247.

8. (2022) “Abu Ali ibn Sino va Buyuk Ipak Yo‘li” I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi Samarqandda [Elektron manba]. URL: https://www.sammu.uz/uz/news/2543758 (Murojaat etilgan sana: 05.01.2025).

9. *Peters M.A.* The ancient Silk Road and the birth of merchant capitalism // Educational Philosophy and Theory. – 2021. – No 53(10). – Pp. 955–961. [Online]. URL: https://www.tandfonline. com/doi/full/10.1080/00131857.2019.1691481?utm (Date of Access: 08.11.2024).

10. *David A.* The Belt and Road Initiative in Asia, Africa, and Europe // Peterson Institute for International Economics (PIIE). – 2016. – Vol. 16. – No 2. – Pp. 29–36. [Online]. URL: https://www.piie.com/publications/piie-briefings/chinas-belt-and-road-initiative-motives-scope-and-challenges (Date of Access: 18.10.2024).

11. *Brzeziński Z*. The Grand Chessboard: Amarican Primacy and Its Geostrategic Imperatives. – New York: Basic Books, 1997. – 229 p. [Online]. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/The_Grand_Chessboard?wprov=sfla1 (Date of Access: 09.01.2025).

12. *Sagdullayev A.S., Kostetskiy V.A.* Tarix. Qadimgi dunyo. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2017. – 192 b.

13. Qog‘oz pullarning ixtirosi (2019) [Elektron manba]. URL: https://www.greelane.com/uz/gumanitar-fanlar/tarix-va-madaniyat/the-invention-of-paper-money-195167?utm_source (Murojaat etilgan sana: 15.01.2024).

14. *Muhammadjonov A.* “O‘zbekiston tarixi” (IV asrdan XV asr boshlarigacha). 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2017. – 160 b.

15. Buyuk Ipak yo‘li – madaniy magistral sifatida**.** [Elektron manba]. URL: https://www.samdu.uz/uz/news/34368?utm_source (Murojaat etilgan sana: 07.01.2025).

16. Xioniylar, kidariylar, eftaliylar va Turk xoqonligi hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot [Elektron manba]. URL: https://english-life.uz/xioniylar-kidariylar-eftaliylar-va-turk-xoqonligi-hukmronligi-davrida-ijtimoiy-iqtisodiy-va-madaniy-hayot/?utm_source (Murojaat etilgan sana: 07.01.2025).

17.Mo‘g‘ullar imperiyasi tarixi (2024) (Milliy kontent) [Elektron manba]. URL: https://milliykontent.uz/posts/mogullar-imperiyasi-tarixi?utm_source (Murojaat etilgan sana: 23.10.2024).

18. Pekinning “Bir makon – bir yo‘l” loyihasi [Elektron manba]. URL: https://uza.uz/oz/posts/bir-makon-bir-yo-l-loyihasi-haqida-bilasizmi-11-06-2018?utm_source (Murojaat etilgan sana: 23.10.2024).

THE GREAT SILK ROAD: ITS ECONOMIC, CULTURAL, AND GEOPOLITICAL SIGNIFICANCE

Hilola F.Ochilova, Jasmina S. Erkaboyeva

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Ijtimoiy fanlar – Scientific Bulletin. Series: Social Research. 2025. 3 (87). 14-20.

[1]Tashkent State University of Economics, Tashkent, 100003, str. Islam Karimov, 49 (Uzbekistan). E-mail: info@tsue.uz.

Key words: Great Silk road, international trade, economic integration, cultural exchange, geopolitics, historical heritage, transport corridors.

This article is provided a comprehensive scholarly analysis of the historical significance of the Great Silk Road and its economic, cultural, and geopolitical relevance. The study examines the strategic role of the Silk Road as an ancient trade route in developing economic relations between East and West, as well as in facilitating cultural, scientific, and spiritual exchanges among various civilizations. The Silk Road is presented not merely as a channel for the movement of goods, but as a global platform for the dissemination of ideas, technologies, religions, and arts. The article substantiates its enduring role in the contemporary processes of international cooperation and regional integration.

Furthermore, the paper highlights the emergence of economic centers along the Silk Road, the impact of caravanserais and trading cities on economic development, and the strategic advantages of the route that extended from China through Central Asia to Europe. Special emphasis is placed on the geo-economic importance of the main routes passing through the territory of Uzbekistan. The free movement of goods and values along this historical corridor is shown to have fostered peace, tolerance, and mutually beneficial relations among diverse peoples, thereby laying the foundation for multifaceted development.

The article also explores the modern geopolitical reinterpretation of the Silk Road through China’s 21st-century “Belt and Road” initiative and its role in the current global trade and economic system. The author argues that this initiative presents new opportunities for modern international cooperation, regional stability, and integrative projects. Issues related to preserving the historical heritage of the Great Silk Road and reviving it through innovative approaches are also addressed. In conclusion, the study offers a deep scientific analysis not only of the Silk Road’s historical significance but also of its current and future strategic potential.

Moreover, the article emphasizes the cultural and scientific heritage of the Silk Road, highlighting its significant role in the exchange of knowledge and ideas among various peoples. The article analyzes how these processes continue today, including through tourism, international scientific projects, and cultural exchange programs, which contribute to the emergence of new forms of the Silk Road.

In conclusion, the article provides a profound scientific analysis of the Silk Road’s historical importance as well as its present and future strategic potential. It further underlines that the Silk Road continues to strengthen the stability of the global trade and economic system, promote interregional cooperation, and contribute to international integration processes. By studying the history of the Silk Road and applying it in a contemporary context, the article opens opportunities for more effective implementation of regional and global strategic projects.

References:

1. Grousset, R. (1970). *The Empire of the Steppes: A History of Central Asia*. [Online]. URL: https://www.rutgersuniversitypress.org/the-empire-of-the-steppes/9780813513041/?utm (Date of Access: 18.11.2024).

2. Bartol'd, V.V. (1936). *Turkestan v epohu mongol'skogo nashestviya* [Turkestan in the era of the Mongol invasion]. In: Sochineniya [Works]. In 9 volumes. Vol.1. Moscow: Izdatel'stvo vostochnoj literatury.

3. Frankopan, P. (2015). *The Silk Roads*: A New History of the World. London: Bloomsbury.

4. Needham, J. (1954). *Science and Civilization in China*. Vol. I. Introductory Orientations. London: Cambridge University Press.

5. Rustamaliyev, J.F. (2025) Buyuk Ipak yo'li: O'zbekistonda savdo va madaniyatlar almashinuvi [The Great Silk Road: trade and cultural exchange in the territory of Uzbekistan]. *Luchshie intellektual'nye issledovaniya*. Vol. 50. No 1. Pp. 217-223. [Online]. URL: https://scientific-jl.com/luch/article/view/25864 ((Date of Access: 15.03.2025)

6. Nurmuhamedova, M.U. (2024) Buyuk Ipak yo'li tarixi va madaniy almashinuvlar [The history of the Great Silk Road and cultural exchanges]. Problems and solutions of scientific and innovative research. Vol.1. Issue 5. Pp.137-140. [Online]. URL: https://universalconference.us/universalconference/index.php/pssir/article /view/ 2726/3744 (Date of Access: 15.01.2024).

7. Sultanova, E.F. (2025) Buyuk Ipak yo'li – sivilizatsiyalar chorrahasi [The Great Silk Road – A crossroads of civilizations]. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.* Vol. 5(1). Pp. 242-247.

8. (2022). "Abu Ali ibn Sino va Buyuk Ipak Yo'li" I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi Samarqandda [Online]. URL: https://www.sammu.uz/uz/news/2543758 (Date of Access: 05.01.2025).

9. Peters, M.A. (2021). The ancient Silk Road and the birth of merchant capitalism. *Educational Philosophy and Theory*. No 53(10). Pp. 955-961. [Online]. URL: https://www.tandfonline.com/doi/full/10. 1080/ 00131857.2019.1691481?utm (Date of Access: 08.11.2024).

10. David, A. (2016). The Belt and Road Initiative in Asia, Africa, and Europe. *Peterson Institute for International Economics (PIIE).* Vol. 16. No 2. Pp. 29-36. [Online]. URL: https://www.piie.com/publications/ piie-briefings/chinas-belt-and-road-initiative-motives-scope-and-challenges (Date of Access: 18.10.2024)

11. Brzeziński, Z. (1997) .*The Grand Chessboard: Amarican Primacy and Its Geostrategic Imperatives*. New York: Basic Books. [Online]. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/The_Grand_Chessboard?wprov=sfla1 (Date of Access: 09.01.2025).

12. Sagdullayev, A.S., Kostetskiy, V.A. (2017). *Tarix. Qadimgi dunyo* [History. The ancient world]. 6th grade textbook. Tashkent: "Yangiyo'l poligraf servis".

13. (2019). Qog'oz pullarning ixtirosi [The invention of paper money]. [Online]. URL: https://www.greelane.com/uz/gumanitar-fanlar/tarix-va-madaniyat/the-invention-of-paper-money195167?utm_ source (Date of Access: 15.01.2024).

14. Muhammadjonov, A. (2017). O'zbekiston tarixi" (IV asrdan XV asr boshlarigacha) [History of Uzbekistan (from the 4th century to the beginning of the 15th century)]. 7th grade textbook]. Tashkent: Sharq.

15. Buyuk Ipak yo'li – madaniy magistral sifatida [The Great Silk Road as a cultural highway]**.** [Online]. URL: https://www.samdu.uz/uz/news/34368?utm_source (Date of Access: 07.01.2025).

16. Xioniylar, kidariylar, eftaliylar va Turk xoqonligi hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot [Online]. URL: https://english-life.uz/xioniylar-kidariylar-eftaliylar-va-turk-xoqonligi-hukmronligi-davrida-ijtimoiy-iqtisodiy-va-madaniy-hayot/?utm_source (Date of Access: 07.01.2025).

17. (2024). Mo'g'ullar imperiyasi tarixi (Milliy kontent) [History of the Mongol Empire. (National content)]. [Online]. URL: https://milliykontent.uz/posts/ mogullar-imperiyasi-tarixi?utm_source (Date of Access: 23.10.2024).

18. (2018). Pekinning "Bir makon – bir yo'l" loyihasi [Beijing's "One Belt, One Road" project]. [Online]. URL: https://uza.uz/oz/posts/bir-makon-bir-yo-l-loyihasi-haqida-bilasizmi-11-06-2018?utm_source (Date of Access: 23.10.2024).

Mualliflar haqida ma'lumot:

OCHILOVA Hilola Farmonovna – iqtisodiyot fanlari doktori, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Turizm va mehmonxona biznesi kafedrasi professori. E-mail: hilola.ochilova20@gmail.com

ERKABOYEVA Jasmina Safarali qizi – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Turizm fakulteti Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 2-bosqich talabasi. E-mail: erkaboyevajasmina2007@gmail.com